



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLIH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLIH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	



DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI

Rajabov Shuxrat Ismayilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat xaridlari auditida muhimlikni (materiallikni) aniqlash uslubi ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan muhimlikning miqdoriy mezon — chetlashish summasining xarid qiymatiga nisbati — hamda sifat mezonlarini, jumladan, qonuniylik, chetlashish tabiati, jamoat manfaati va takroriylikni birlashtiruvchi ikki tomonlama uslub taklif etilgan. Ushbu uslubda muhimlik darajasi xatar darajasi bilan teskari bog'langan: yuqori xatarli xaridlar uchun muhimlik darajasi pastroq, past xatarli xaridlar uchun esa yuqoriroq belgilanadi. Taklif etilgan uslub tekshiruv qamrovi va tanlanma hajmini ilmiy asoslangan tarzda belgilash, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarning jiddiyligini moliyaviy va sifat jihatlaridan baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, ichki audit, muhimlik, materiallik, miqdoriy mezon, sifat mezonlari, xatar, tanlanma, tekshiruv qamrovi, budget tashkilotlari.

Abstract. This article develops a methodology for determining materiality in public procurement audits. The author proposes a dual approach that combines a quantitative criterion—the ratio of the identified deviation to the procurement value—with qualitative criteria, including legality, the nature of the deviation, public interest, and recurrence. Under the proposed methodology, the materiality threshold is inversely related to the level of risk: a lower materiality threshold is established for high-risk procurements, while a higher threshold is applied to low-risk procurements. The proposed approach makes it possible to determine the scope of audit procedures and the sample size on a scientifically grounded basis, as well as to assess the significance of identified deficiencies from both financial and qualitative perspectives.

Keywords: public procurement, internal audit, materiality, quantitative criterion, qualitative criteria, risk, audit sampling, audit scope, budgetary organisations.

Аннотация. В данной статье разработана методика определения существенности в аудите государственных закупок. Автором предложен двусторонний подход, объединяющий количественный критерий — отношение суммы выявленного отклонения к стоимости закупки — и качественные критерии, включая законность, характер отклонения, общественную значимость и повторяемость. В рамках предложенной методики уровень существенности находится в обратной зависимости от уровня риска: для закупок с высоким уровнем риска устанавливается более низкий порог существенности, а для закупок с низким уровнем риска — более высокий. Предлагаемый подход позволяет научно обоснованно определять объем аудиторской проверки и размер выборки, а также оценивать значимость выявленных недостатков как с финансовой, так и с качественной точки зрения.

Ключевые слова: государственные закупки, внутренний аудит, существенность, количественный критерий, качественные критерии, риск, аудиторская выборка, объем аудита, бюджетные организации.

KIRISH

Davlat xaridlari auditida muhim metodologik masalalardan biri — tekshiriluvchi kamchiliklarning qaysi darajada jiddiy ekanligini aniqlashdir. Auditor barcha, jumladan, miqdori kichik chetlashishlarni bir xil darajada tekshirishi maqsadga muvofiq emas. Shu sababli audit amaliyotida muhimlik (materiallik) tushunchasi qo'llaniladi, u audit e'tiborini va resurslarini aynan jiddiy kamchiliklarga yo'naltirish imkonini beradi.

Muhimlik tushunchasi audit nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u auditning barcha bosqichlarida — rejalashtirish, tekshiruv o'tkazish va natijalarni baholashda qo'llaniladi. To'g'ri belgilangan muhimlik darajasi auditni samarali va maqsadli qiladi; noto'g'ri belgilangan muhimlik esa muhim kamchiliklarning e'tibordan chetda qolishiga yoki, aksincha, ahamiyatsiz chetlashishlarga ortiqcha e'tibor qaratilishiga olib keladi.

Muhimlik — aniqlangan chetlashish yoki kamchilikning audit xulosasiga yoxud budget mablag'laridan foydalanish bahosiga ta'sir qiladigan darajasidir. Muhimlik darajasini to'g'ri belgilash auditning qamrovi, tanlanma



hajmi va yakuniy xulosasini belgilaydi. Biroq davlat xaridlari sohasida muhimlikni aniqlashning yagona va ilmiy asoslangan uslubi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimi isloh qilinib, xaridlar elektron shaklga o'tkazildi va ichki audit instituti joriy etilmoqda. Bunday sharoitda davlat xaridlari auditining metodologik asoslarini, jumladan, muhimlikni aniqlash uslubini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi, chunki muhimlik auditning sifati va ishonchiligidini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Amaliyotda muhimlik ko'pincha faqat miqdoriy jihatdan, ya'ni chetlashish summasining kattaligi bo'yicha baholanadi. Biroq davlat xaridlari sohasida ayrim kamchiliklar kichik moliyaviy hajmga ega bo'lsa-da, qonuniylik yoki jamoat manfaati nuqtayi nazaridan jiddiy hisoblanadi. Shu bois muhimlikni aniqlashda miqdoriy va sifat jihatlarini birga hisobga oluvchi kompleks uslub zarur. Mazkur maqolaning maqsadi — davlat xaridlari auditida muhimlikni aniqlashning ikki tomonlama uslubini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditda muhimlik tushunchasi xalqaro audit standartlarida markaziy o'rin egallaydi. Xalqaro audit standarti (ISA 320) muhimlikni auditni rejalashtirish va o'tkazishda asosiy mezon sifatida belgilaydi. INTOSAIning ISSAI 4000 muvofiqlik auditni standarti ham tekshiriluvchi obyektning xatar va muhimlik asosida tanlashni talab qiladi. Ushbu standartlar muhimlikni aniqlashning metodologik asosini yaratadi.

Muhimlik ikki asosiy jihatdan qaraladi: miqdoriy (sonli) va sifat (mazmuniy). Miqdoriy jihat chetlashishning moliyaviy kattaligi bilan, sifat jihatida esa uning tabiati va oqibatlarini bilan bog'liq. Xalqaro standartlarda har ikki jihatni inobatga olish tavsiya etiladi. Biroq amaliyotda ko'pincha faqat miqdoriy jihatga e'tibor qaratiladi, bu esa jiddiy, ammo kichik hajmli kamchiliklarning e'tibordan chetda qolishiga olib keladi.

Ichki audit sohasida L. Soyer va boshqalar (Sawyer et al., 2003) hamda R. Meller (Moeller, 2015) muhimlikni auditni rejalashtirishning ajralmas qismi sifatida ko'rsatgan. N. Kazakova (Kazakova, 2018) muhimlikning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratib, ularni baholash metodlarini umumlashtirgan. V. Bursev (Bursev, 2002) davlat moliyaviy nazoratida muhimlikning o'rnini tahlil qilgan.

Davlat sektorida muhimlikni aniqlash xususiyatlari INTOSAI standartlarida alohida ko'rsatilgan. Davlat sektori auditida muhimlik nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy va jamoatchilik jihatidan ham baholanadi, chunki davlat mablag'laridan foydalanish jamoatchilik nazorati ostida bo'ladi. Bu xususiyat davlat xaridlari auditida sifat mezonlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Davlat xaridlari sohasidagi kamchiliklar va qonun buzilishlari xorijiy tadqiqotlarda (Arrowsmith, 2014; Thai, 2009) hamda xalqaro hujjatlarda yoritilgan. Mahalliy olimlarning (Ilhamov, 2019; Abdiyeva, 2022) ishlarida auditning tashkiliy asoslari ko'rib chiqilgan. Biroq davlat xaridlari sohasiga xos bo'lgan, miqdoriy va sifat mezonlarini birlashtiruvchi hamda muhimlikni xatar bilan bog'lovchi uslub yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda muhimlikni aniqlash bo'yicha xalqaro standartlar (ISA 320, ISSAI 4000) tahlil qilinib, ularning talablari davlat xaridlari auditiga moslashtirilgan. Tahlil va sintez usullari muhimlikning miqdoriy va sifat tarkibiy qismlarini ajratish hamda ularni yaxlit uslubga birlashtirishda qo'llanilgan.

Tizimli yondashuv usuli muhimlikni xatar darajasi bilan bog'lash va ikki tomonlama uslubni ishlab chiqishda asos bo'lgan. Guruhlash usuli sifat mezonlarini toifalashda, mantiqiy umumlashtirish usuli esa xulosa va tavsiyalarni shakllantirishda qo'llanilgan.

Tadqiqot davomida davlat xaridlaridagi kamchilik turlari tahlil qilinib, ularning miqdoriy va sifat jihatlarini aniqlangan. Sifat mezonlari xalqaro amaliyot va davlat xaridlari sohasining xususiyatlari asosida shakllantirilgan. Uslub audit amaliyotida qo'llash uchun soddalashtirilgan va amaliyotga moslashtirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridlari auditida muhimlikni aniqlashning ikki o'lchami mavjud: miqdoriy va sifat. Miqdoriy o'lcham chetlashishning moliyaviy kattaligini, sifat o'lchami esa uning tabiati va oqibatlarini hisobga oladi. Muallif tomonidan taklif etilgan uslub ushbu ikki o'lchamni yaxlit tizimda birlashtiradi.

Muhimlik audit faoliyatining bir necha bosqichida muhim rol o'ynaydi. Rejalashtirish bosqichida muhimlik darajasi tekshiruv qamrovi va tanlanma hajmini belgilaydi. Tekshiruv bosqichida aniqlangan chetlashishlar muhimlik darajasi bilan solishtiriladi. Baholash bosqichida ayrim chetlashishlarning jami ta'siri aniqlanadi. Hisobot bosqichida esa faqat muhim kamchiliklar auditorlik xulosasida aks ettiriladi. Shunday qilib, muhimlik



audit jarayonini boshidan oxirigacha yo'naltiradi.

Miqdoriy muhimlik chetlashish summasining xarid qiymatiga yoki umumiy xarid hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi. Bunda umumiy muhimlik (butun xarid bo'yicha) va ishchi muhimlik (ayrim operatsiya bo'yicha) farqlanadi. Ishchi muhimlik odatda umumiy muhimlikning ma'lum ulushi (masalan, 50–75 foizi) sifatida belgilanib, bu auditorga ayrim chetlashishlarni ertaroq aniqlash imkonini beradi.

Umumiy muhimlikni hisoblashda asos (baza) sifatida xarid qiymati, xarid budjeti yoki shartnoma summasi olinishi mumkin. Baza tanlovi xarid turiga va audit maqsadiga bog'liq. Tanlangan bazaga muayyan foiz qo'llanilib, umumiy muhimlik miqdori aniqlanadi. Bu miqdor auditning boshlang'ich mezon bo'lib xizmat qiladi va keyinchalik ishchi muhimlikka taqsimlanadi.

Ishchi muhimlik umumiy muhimlikning bir qismi sifatida belgilanib, audit davomida ayrim chetlashishlarni ertaroq aniqlash va jami xatolikning umumiy muhimlikdan oshib ketmasligini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Ishchi muhimlik odatda umumiy muhimlikning 50–75 foizi oralig'ida belgilanadi; xatar yuqori bo'lganda bu ulush kamaytiriladi, bu esa tekshiruv aniqligini oshiradi.

Taklif etilgan uslubning muhim xususiyati — miqdoriy muhimlikning xatar darajasi bilan teskari bog'lanishidir. Yuqori xatarli xaridlar uchun muhimlik darajasi pastroq belgilanib, tekshiruv qamrovi kengaytiriladi; past xatarli xaridlar uchun esa muhimlik darajasi yuqoriroq bo'lib, cheklangan tekshiruv o'tkaziladi. Bunday bog'liqlik audit resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Muhimlik darajasining xatar zonasiga bog'liqligi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval
Miqdoriy muhimlik darajasining xatar zonasiga bog'liqligi

Xatar zonasi	Muhimlik darajasi (xarid qiymatiga nisbatan)	Tekshiruv xususiyati
Yuqori (qizil)	Past (masalan, 1–2%)	Keng qamrovli va chuqurlashtirilgan tekshiruv
O'rta (sariq)	O'rta (masalan, 2–3%)	O'rtacha qamrovli tekshiruv
Past (yashil)	Yuqori (masalan, 3–5%)	Cheklangan ko'lamdagi tekshiruv

Manba: muallif ishlanmasi. Foiz qiymatlari shartli (namunaviy) bo'lib, tashkilot xususiyatlariga qarab aniqlashtiriladi.

Jadvaldan ko'rinadiki, muhimlik va xatar o'rtasidagi teskari bog'liqlik yuqori xatarli xaridlarni chuqurlashtirilgan tartibda, past xatarli xaridlarni esa cheklangan ko'lamda tekshirish imkonini beradi. Bu xatarga yo'naltirilgan metodologiya bilan muhimlik uslubining yaxlit ishlashini ta'minlaydi.

Muhimlikning xatar bilan bog'lanishi audit nazariyasidagi muhim tamoyilga asoslanadi: xatar qanchalik yuqori bo'lsa, auditor shunchalik kam chetlashishni ham muhim deb hisoblashi va tekshiruvni kuchaytirishi lozim. Bu bog'liqlik auditning ishonchligini oshiradi va resurslarni eng muhim sohalarga yo'naltiradi.

Biroq miqdoriy muhimlikning o'zi davlat xaridlari sohasi uchun yetarli emas. Ayrim chetlashishlar kichik moliyaviy hajmga ega bo'lsa-da, o'z tabiatiga ko'ra jiddiy hisoblanadi. Shu bois taklif etilgan uslub sifat mezonlarini ham o'z ichiga oladi. Sifat mezonlari kamchilikning moliyaviy hajmidan qat'i nazar, muhim deb baholash imkonini beradi. Asosiy sifat mezonlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
Davlat xaridlari auditida muhimlikning sifat mezonlari

Sifat mezonlari	Tavsifi	Misol
Qonuniylik	Qonun va qoidalar talablarining buzilishi	Raqobatli usuldan asossiz voz kechish
Chetlashish tabiati	Qasddan sodir etilgan, takroriy yoki firibgarlik alomatlariga ega chetlashish	Hujjatlarning ishonchligiga oid nomuvofiqliklar, ishtirokchilarning kelishilgan harakatlari
Jamoat manfaati	Ijtimoiy ahamiyatli soha yoki katta jamoatchilik e'tibori	Ta'lim, sog'liqni saqlash xaridlari
Takroriylik	Bir xil yoki o'xshash kamchiliklarning muntazam takrorlanishi	Narxlarning takroran yetarli iqtisodiy asoslarsiz yuqori belgilanishi

Manba: muallif ishlanmasi.



Jadvalda keltirilgan sifat mezonlaridan kamida biriga mos keluvchi chetlashish moliyaviy hajmidan qat'i nazar, muhim deb hisoblanadi. Masalan, raqobatli usuldan asossiz voz kechish summasi kichik bo'lsa ham, qonuniylik mezoniga ko'ra muhim nomuvofiqlik sifatida baholanadi va audit hisobotida aks ettiriladi.

Sifat mezonlarining har biri davlat xaridlari sohasida o'ziga xos ahamiyatga ega. Qonuniylik mezonini xarid jarayonining qonun doirasida amalga oshirilishini, chetlashish tabiati mezonini kamchilikning tasodifiy yoki qasddan sodir etilganligini, jamoat manfaati mezonini xarid natijasining jamiyatga ta'sirini, takroriylik mezonini esa kamchilikning tizimli xususiyatga ega ekanligini baholaydi. Ushbu mezonlar birgalikda kamchilikning sifat jihatidan jiddiyligini aniqlaydi.

Shunday qilib, muallif tomonidan taklif etilgan ikki tomonlama uslub miqdoriy va sifat mezonlarini birlashtiradi: chetlashish miqdoriy muhimlik darajasidan oshsa yoki kamida bitta sifat mezoniga mos kelsa, muhim deb hisoblanadi. Bu uslub davlat xaridlari sohasining o'ziga xosligini to'liq qamrab oladi. Ikki tomonlama uslubning qaror qabul qilish mantig'i 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval
Ikki tomonlama muhimlik uslubining qaror qabul qilish mantig'i

Miqdoriy mezon (muhimlik darajasidan oshadimi?)	Sifat mezonini (kamida biriga mos keladimi?)	Xulosa
Ha	Ha	Muhim (yuqori darajada)
Ha	Yo'q	Muhim
Yo'q	Ha	Muhim (sifat jihatidan)
Yo'q	Yo'q	Nomuhim

Manba: muallif ishlanmasi.

Jadvaldan ko'rinadiki, chetlashish faqat miqdoriy mezon va sifat mezonlarining har ikkalasiga mos kelmagan taqdirdagina nomuhim deb hisoblanadi. Boshqa barcha holatlarda chetlashish muhim deb baholanadi va auditor tomonidan qo'shimcha tahlil qilinadi. Bunday yondashuv davlat xaridlaridagi moliyaviy hajmi kichik bo'lsa-da, mazmunan muhim bo'lgan nomuvofiqliklarning e'tibordan chetda qolmasligini ta'minlaydi.

Uslubni amaliy misolda tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik, xarid qiymati 1 milliard so'm bo'lib, u yuqori xatarli (qizil) zonaga kiradi. Bunda muhimlik darajasi 1,5 foiz etib belgilansa, umumiy muhimlik 15 million so'mni tashkil etadi. Demak, 15 million so'mdan oshuvchi chetlashishlar miqdoriy jihatdan muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, summasi 15 million so'mdan kam bo'lsa-da, raqobatli usuldan asossiz voz kechish kabi sifat mezoniga mos keluvchi chetlashishlar ham muhim deb baholanadi.

Muhimlikni aniqlashda auditorning kasbiy mulohazasi muhim o'rin tutadi. Miqdoriy foiz ko'rsatkichlari va sifat mezonlari auditorga yo'nalish beradi, biroq yakuniy qaror aniq holatning xususiyatlarini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Shu bois taklif etilgan uslub o'zgarmas formula sifatida emas, balki auditorning kasbiy qarorini asoslovchi tizimli vosita sifatida qaraladi.

Taklif etilgan ikki tomonlama uslubning an'anaviy, faqat miqdoriy yondashuvdan ustunligi shundaki, u kamchilikning ham moliyaviy, ham mazmuniy jihatini baholaydi. Bu davlat xaridlari sohasida ayniqsa muhim, chunki bu yerda qonuniylik va shaffoflik moliyaviy hajmdan kam ahamiyatga ega emas. Shu tariqa, uslub audit sifatini va unga jamoatchilik ishonchini oshiradi.

Taklif etilgan uslubning amaliy ahamiyati bir necha jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u tekshiruv qamrovini obyektiv asosda belgilaydi. Ikkinchidan, audit resurslarini optimal taqsimlaydi. Uchinchidan, moliyaviy hajmi kichik bo'lsa-da, mazmunan muhim bo'lgan nomuvofiqliklarning aniqlanishini ta'minlaydi. To'rtinchidan, auditorlar o'rtasida yagona yondashuvni shakllantirib, audit natijalarining qiyoslanuvchanligini oshiradi.

Taklif etilgan muhimlik uslubi audit tanlanmasi hajmini belgilashda ham qo'llaniladi. Muhimlik darajasi past bo'lgan (yuqori xatarli) xaridlarda tanlanma hajmi kengaytiriladi, muhimlik darajasi yuqori bo'lgan (past xatarli) xaridlarda esa tanlanma hajmi kamaytiriladi. Bu audit resurslarini optimal taqsimlash va tekshiruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Muhimlik darajasi va uni aniqlash asoslari audit hujjatlarida qayd etilishi lozim. Bu audit shaffofligini ta'minlaydi va zarur holda muhimlik darajasini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Audit davomida yangi ma'lumotlar olingani sayin muhimlik darajasi aniqlashtirilishi mumkin.

Aniqlangan chetlashishlarni baholashda ularning umumlashgan ta'siri ham hisobga olinadi. Alohida olinganda nomuhim bo'lgan bir necha chetlashish birgalikda umumiy muhimlik darajasidan oshishi mumkin.



Bunday holda ular jami jihatdan muhim deb hisoblanadi. Shu bois auditor chetlashishlarni ham alohida, ham jami holda baholashi lozim.

Uslubning davlat xaridlari sohasiga xosligi uning sifat mezonlarida namoyon bo'ladi. Jamoat manfaati mezonini, xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy ahamiyatli sohalaridagi xaridlarga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Masalan, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari uchun amalga oshiriladigan qurilish, ovqatlanirish va darslik xaridlaridagi kamchiliklar jamoat manfaati nuqtayi nazaridan yuqori muhimlikka ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat xaridlari auditida muhimlik an'anaviy moliyaviy auditdagidan farq qiladi. Moliyaviy auditda muhimlik asosan moliyaviy hisobotning to'g'riligiga ta'siri bo'yicha baholansa, davlat xaridlari auditida u xarid jarayonining qonuniyligi, raqobatligi va natijadorligiga ta'siri bo'yicha ham baholanadi. Bu farq davlat xaridlari sohasida sifat mezonlarining alohida ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Taklif etilgan muhimlik uslubi xatarga yo'naltirilgan metodologiya bilan birgalikda yaxlit tizim tashkil etadi. Xatar darajasi muhimlik darajasini belgilaydi, muhimlik esa tekshiruv qamrovi va tanlanma hajmini aniqlaydi. Bunday uzviy bog'liqlik davlat xaridlari auditini ilmiy asosda, izchil va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Muhimlik darajasi auditorlik xulosasining turiga ham ta'sir qiladi. Muhimlik darajasi auditorlik xulosasini shakllantirishga ham ta'sir qiladi. Auditor aniqlangan chetlashishlarning miqdori, tabiati, ko'lami va umumiy ta'sirini baholagan holda tegishli xulosani shakllantiradi. Shu sababli muhimlik darajasini asosli belgilash audit natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, muhimlikni to'g'ri aniqlash auditorlik xulosasining asoslanganligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida davlat xaridlari auditida muhimlikni aniqlash uslubiga doir quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, davlat xaridlari sohasida muhimlikni faqat miqdoriy jihatdan baholash yetarli emas, chunki ayrim kamchiliklar kichik moliyaviy hajmga ega bo'lsa-da, qonuniylik yoki jamoat manfaati nuqtayi nazaridan jiddiy hisoblanadi.

Ikkinchidan, muallif tomonidan taklif etilgan ikki tomonlama uslub miqdoriy mezon (chetlashishning xarid qiymatiga nisbati) va sifat mezonlarini (qonuniylik, chetlashish tabiati, jamoat manfaati, takroriylik) birlashtirib, kamchiliklarning jiddiyligini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, muhimlikni xatar darajasi bilan teskari bog'lash audit resurslarini optimal taqsimlash va tekshiruv qamrovini ilmiy asosda belgilash imkonini beradi. Bu muhimlik uslubining xatarga yo'naltirilgan metodologiya bilan yaxlit ishlashini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, taklif etilgan uslub davlat xaridlari sohasining o'ziga xosligini, jumladan, ijtimoiy ahamiyatli sohalaridagi xaridlarning muhimligini hisobga oladi. Tadqiqot natijalaridan davlat xaridlari auditini rejalashtirish va ichki audit uslubiy qo'llanmalarini ishlab chiqishda foydalanish tavsiya etiladi.

Beshinchidan, taklif etilgan muhimlik uslubini amalda qo'llash auditorlarni tegishli uslubiy qo'llanma bilan ta'minlash va ularning malakasini oshirish orqali samarali bo'ladi. Uslub davlat xaridlari auditini sifatini oshirish va budget mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Auditing and Assurance Standards Board. International Standard on Auditing 320: Materiality in Planning and Performing an Audit [Elektron resurs]. – URL: <https://www.iaasb.org/consultations-projects/materiality-planning-and-performing-audit-and-evaluation-misstatements-identified-during-audit-isa> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
2. INTOSAI. ISSAI 4000: Compliance Audit Standard [Elektron resurs]. – URL: <https://www.issai.org/pronouncements/issai-4000-compliance-audit-standard/> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
3. INTOSAI. GUID 5280: Guidance for Audits of Public Procurement [Elektron resurs]. – 63 p. – URL: <https://www.issai.org/pronouncements/guidance-for-the-audits-of-public-procurement/> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
4. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards [Elektron resurs]. – Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. – 120 p. – URL: <https://www.theiia.org/en/content/standards/complete-global-internal-audit-standards/> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
5. Sawyer, L.B. Sawyer's Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing / L.B. Sawyer, M.A. Dittenhofer, J.H. Scheiner. – 5th ed. – Altamonte Springs, FL: The Institute of Internal Auditors, 2003. – 1446 p.



6. Moeller, R.R. Brink's Modern Internal Auditing: A Common Body of Knowledge / R.R. Moeller. – 8th ed. – Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2015. – 832 p.
7. Аудит: учебник для академического бакалавриата / под общ. ред. Н.А. Казаковой. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 387 с.
8. Бурцев, В.В. Организация системы государственного финансового контроля в Российской Федерации: теория и практика / В.В. Бурцев. – М.: Дашков и К°, 2002. – 496 с.
9. Arrowsmith, S. The Law of Public and Utilities Procurement: Regulation in the EU and UK / S. Arrowsmith. – 3rd ed. – Vol. 1. – London: Sweet & Maxwell, 2014. – 1449 p.
10. International Handbook of Public Procurement / ed. by K.V. Thai. – Boca Raton, FL: CRC Press, 2009. – 840 p.
11. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance [Elektron resurs]. – 2017. – URL: <https://www.coso.org/guidance-erm> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
12. Илхамов, Ш.И. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит ва унинг самарадорлигини баҳолаш хусусиятлари / Ш.И. Илхамов // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2019. – № 1 (39). – Б. 1–12. – URL: https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/29_Ilkhamov.pdf (murojaat sanasi: 22.07.2026).
13. Абдиева, Н.Ш. Ички аудит иш сифатини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш / Н.Ш. Абдиева // Молия ва банк иши. – 2022. – Т. 8. – № 2. – Б. 43–47. – URL: <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/18> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
14. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 22-aprel, O'RQ-684-son [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-5382974> (murojaat sanasi: 22.07.2026).
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 20-dekabr, 865-son [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7271145> (murojaat sanasi: 22.07.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>